



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Agar **خَافَ** kabi **فَعَلَ** qolipida bo‘lsa (**و خ ف ت**)⁴⁴ kabi illatli harfni tushirib, yuqorida (الياء) tuslaganingiz kabi undan oldingi undoshning harakatini kasra qilasiz⁴⁵. Masdar va uning fe‘l bilan bog‘liqligi Masdar - fe‘lning otlashgan shakli bo‘lib, harakat nomini bildiradi. Misol: **كَتَبَ** (yo‘zish) **دَرَسَ** (o‘qish) Masdar fe‘lning asosiy ma‘nosini ifodalaydi va morfologiyada muhim o‘rin tutadi. Fe‘llarning morfologik o‘zgarishlari Fe‘llar quyidagi jihatlariga ko‘ra o‘zgaradi: zamon (madiy, mudori’, amr) son (yakka, juft, ko‘plik) jins (erkak, ayol) Bu o‘zgarishlar arab tilining boy grammatik tizimini tashkil etadi. Morfologik tahlil - fe‘l zamonlari hosil qilinidagi qo‘shimchalar, ildiz va affikslar tahlil qilindi Arab tili morfologiyasida fe‘llar markaziy o‘rin egallaydi. Ular o‘zining murakkab va mukammal tizimi bilan ajralib turadi. Fe‘llarning zamon, shaxs, son va vazn asosida o‘zgarishi bu tilni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘zak va vazn tizimi arab tilining o‘ziga xosligini belgilaydi. Fe‘llarni chuqur o‘rganish arab tilini mukammal egallash uchun zarurdir.

Morfologiyani o‘qitish metodikasi so‘z tarkibi va ularning shakllarini o‘rganish bilan talabalarni tanishtirishni o‘z ichiga oladi. Bu ularning til tarkibi va tahlili haqidagi tushunchalarini oshirishga qaratilgan. Morfologiyani o‘rganish o‘quvchining mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi, so‘zning turli shakllarini o‘rganish va yangi so‘z hosil qilish, ularni o‘zaro qiyoslash va tanlash, tanlab olingan so‘zni gap tarkibida hamda bog‘lanishli nutqda o‘rinli ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Morfologiyani o‘qitishda tizimli yondashuvni ta‘minlab, o‘qituvchilar o‘quvchilarni turli strategiyalar va mashqlar orqali yo‘naltiradilar. Bu ularga naqshlarni aniqlash, so‘z ildizlarini tahlil qilish va o‘z bilimlarini tildan foydalanishda qo‘llash imkonini beradi. O‘quvchilarni morfologiyani o‘qitish bilan tanishtirish lug‘at boyligi, imlo va tilni tushunish qobiliyatini oshirishga zamin yaratadi. Bu ularni murakkab so‘zlarni samarali dekodlash va talqin qilish ko‘nikmalari bilan jihozlaydi. Morfologiyani o‘qitish o‘zining murakkabligi va mavhumligi tufayli o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. O‘qituvchilar talabalar uchun tushunchalarni soddalashtirish uchun qiziqarli usullarni topishlari kerak. Ko‘rgazmali qurollar va interfaol tadbirlar morfologik qoidalar va naqshlarni tushunishni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar turli xil texnikalarni qo‘llashlari kerak. Bundan tashqari, lingvistik tadqiqotlardagi yutuqlardan xabardor bo‘lish morfologiyani samarali o‘rgatish va talabalarga har tomonlama o‘rganish tajribasini taqdim etish uchun juda muhimdir. O‘quvchilarni so‘z tuzilishi va shakllanishini tushunishga jalb qilishga qaratilgan innovatsion strategiyalarni ham shu soha o‘z ichiga oladi. Amaliy mashg‘ulotlar, ko‘rgazmali qurollar va interfaol mashqlarni o‘z ichiga o‘rgatish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning morfologik tushunchalarni tushunishlari va esda qolishlarini kuchaytiradilar. Ushbu innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning morfologiyani o‘rganishga qiziqishi va malakasini oshiruvchi dinamik o‘quv

⁴⁴ Nuriddinova Ch. Arab tilidagi fe‘l zamonlari va o‘zbek tilidagi zamonlar taqqoslamasi // ” Journal of new century innovations” . Alfraganus universitet. 2025 – B. 96

⁴⁵ Musayev I. Arab tilida ikkilangan va noto‘g‘ri fe‘llarning shaxs-sonda tuslanish xususiyatlari // ”Yil tadqiqotchisi” . Toshkent, 2024. – B. 556



muhitini yaratishga yordam beradi. So‘z turkumlarini o‘rgatishda to‘g‘ri baholash usullari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Arab tilida ko‘makchi fe‘llar mavzusi juda keng va murakkab mavzulardan hisoblanadi. Ularni farqlash va tasniflashdan avval uning o‘zi haqida qisqacha ma‘lumot berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ko‘makchi fe‘llar deb sub‘yektning ish harakatini bildiruvchi yetakchi fe‘l bilan birga kelib, unga turlicha qo‘shimcha ma‘no beruvchi fe‘llarga aytiladi. Arab va o‘zbek tilshunoslari ko‘makchi fe‘llarga bergan ta‘riflari bir-biridan qisman farqlansada, ular deyarli farq qilmaydi. Bu fe‘llar ega va kesimni o‘zgartiruvchi fe‘llar tarkibiga kiritiladi. Darhaqiqat ular egani bosh kelishikda, kesimni tushum kelishigida keltiradi. Shuning uchun u bosh kelishikdagi ism, tushum kelishigidagi kesim deyiladi. Ularning noqisligi shundaki "ضَرْبٌ"، "وَقَتْلٌ" kabi fe‘llarga yordamchi fe‘l bo‘ladi. Qachonki gapda kesim bosh kelishik olib, bu yordamchi fe‘llar tushurib qoldirilganida bosh kelishik bilan tushum kelishigi birga kelmaydi. (Izoh: ko‘makchi fe‘llar fe‘l-kesim bilan bog‘langanda unga qo‘shimcha ma‘no anglatadi, yoki yordamchi fe‘llardan so‘ng ega va kesim bo‘lmasa u gap bo‘lmaydi.⁴⁶ Zamon fe‘li bo‘lishi kerak. Masalan: «كاد زيد يخرج» - Zayd chiqayozdi deganiz kabi. متأوالٌ باسم فاعل، كقول

ك kabi ot-kesimni tushum kelishigi holatiga qo‘yuvchi fe‘llar toifasidan "كان" biri "af‘alu-l-muqaraba"dir. Bu fe‘l sirasiga كاد، كرب، كاد fe‘llari kiradi. Bu

fe‘llar ish xarakatni boshlanishiga yaqin, oz vaqt qolganini bildiradi. Af‘alu-l muqaraba fe‘llaridan keyin kelayotgan kesim butun bir jumla shaklida bo‘lishi mumkin.¹² Masalan: "كَادَتُ الشَّمْسُ تُشْرِقُ" – Quyosh Sharqdan chiqay dedi.

Arab tilshunoslari ushbu jumlaning quyidagicha tahlil qiladilar: (كاد) فعل ماض ناقص من أخوات (كان) مبني علي الفتح. و (التاء) للتأنيث و (الشمس) اسم كاد

مرفوع و عالمة الرفع الضمة الظاهرة. (تشرق) فعل مضارع مرفوع لتجرده من الناصب و الجازم و

عالمة الرفع من الجملة الضمة الظاهرة. و الفاعل ضمير مستتر جوازا تقديره (هي). والجملة من الفعل

bo‘lib "كاد" tugallanadigan, ya‘ni o‘zgarish fe‘lidir. ning egasi bosh "كاد" quyosh-شمس fe‘lini muannas jinsiga ishora "التاء" kelishikda va buning ko‘rsatkichi al-damma az zoxiradir. Shart (jazm) va istak (nasb) yuklamalaridan holi bo‘lgani uchun "تشرق" darak maylidagi hozirgi zamon fe‘lidir. Uning darak mayliga ishora qiluvchi belgi ad-damma ,az-zohiradir. Uning "الفاعل"ning taqdiri bo‘lgan (هي) ad-damir mustatiridir. Jumla ega va fe‘l-kesimdan tashkil topgan bo‘lib fe‘lidan keyin tushum kelishigi holatida turadigan kesim o‘rnidadir.¹³ "كاد" yuklamasi "أن" ga nisbatan kesim bo‘lib kelayotgan jumla ko‘pincha "كاد" bilan keladi. fe‘lli inkor yuklamasi bilan kelganda, "zo‘rg‘a", "deyarli" ma‘nolarini "كاد" bildiradi.

⁴⁶ Shoymardonova F. Morfologiya haqida ma'lumot// "Новости образования: исследование в XXI веке" Surxondaryo viloyati. Termiz shahri. 2025. - B. 553



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Muhammad Abdulloh Jamoluddin Ibn Hishom Ansoriy. Mug'niy al-labib 'an kutub al-a'ariyb. – Bayrut: Daru-l-Lubab, 2021. – 953 b.
2. Ahmad ibn Abdunnur Molaqiy. Rosf al-Mabaniy. – Damashq: Daru-l-qolam, 2002. – 576 b.
3. Bekpo'lat S. Mab dau-s-sarf (“Sarf asoslari”). – Toshkent: Book Media, 2020. – B. 21.
4. Hasan ibn Qosim Murodiy. Al-jana ad-daniy. – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya, 1992. – 684 b.
5. Mamajanova V. Fe'l mayllarining o'zgarishiga sabab bo'luvchi yuklamalar tahlili // Yangi renessansda ilm-fan taraqqiyoti, B. 562
6. Mamajanova V. Fe'l mayllarining o'zgarishiga sabab bo'luvchi yuklamalar tahlili // Yangi renessansda ilm-fan taraqqiyoti, B. 562
7. Nosirjonov M. Arab tilida yordamchi fe'llarni berilish va tarixi // "Top izlanuvchi - 2025" ilmiy va ijodiy ishlar tanlovi, 2025. – B. 334
8. Nutfilloyeva M. Arab tilida “ma” (ما) yuklamasining grammaik vazifalari // Arab tili globallashuv davrid: innovatsion yondashuvlar va o'qitish metodikasi, 12/2025. – B. 457